

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda
TURLI AGROTEKNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA
TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod
SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA
TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat
KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK
KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza
O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY
TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat
QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI
TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch
RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING
MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамилла
СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ
ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина
ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ
АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika
GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat
FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN
LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat
BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI
INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli

O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK YONDASHUV67-72

QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI TURLARINING MORFOLOGIYASI

Yo'ldoshova Jamila

QDU mustaqil tadqiqotchisi

Email: yuldoshevajamila50@gmail.com

Xidirova Munajat

QDU magist

Email: yuldoshevajamila50@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi haqiqiy arilarning tarkibini aniqlash va ularning taksonomik ro'yxatini tuzish uchun adabiyot ma'lumotlari va dala tadqiqotlari asosida qiyosiy tahlil keltirilgan. Natijalar *Vespula* turkumiga mansub turlarning morfologik tavsifini qo'llab-quvvatlaydi.

Kalit so'zlar: *Vespula germanica*, tuxum, lichinka, *Vespula rufa*, *Vespa orientalis*.

MORPHOLOGY OF SPECIES OF THE GENUS VESPULA (THOMSON, 1869) ENCOUNTERED IN THE KASHKADARYO OASIS

Yuldoshova Jamila

Independent researcher, QSU

Khidirova Munajat

Master, QSU

Annotation. This article presents a comparative analysis based on literature data and field studies to determine the composition of true wasps in the Kashkadarya region and compile their taxonomic list. The results support the morphological description of species belonging to the *Vespula* genus.

Keywords: *Vespula germanica*, egg, larva, *Vespula rufa*, *Vespa orientalis*.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n05>

***Vespula germanica* (Fabricius, 1793) (*V. germanica*) turi**

Morfologiyasi. Tanasining uzunligi urg'ochi individlarda taxminan 17,5 mm ni tashkil etadi, erkaklarida esa 11,5–15,5 mm oralig'ida bo'ladi. Tana rangi asosan sariq va qora ranglarning uyg'unligidan iborat bo'lib, yuzasida mayda nuqtasimon belgilar kuzatiladi. Biologiya. 2025 yil bahor mavsumida olib borilgan kuzatuvlar natijasida *Vespula germanica* malikasining dastlab yakka holda uya qurishi aniqlandi. U tomonidan qurilgan uya oltiburchak shakldagi katakchalardan iborat bo'lib, ushbu katakchalar embrion rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ya'ni, ular tuxum, lichinka va g'umbak bosqichlarining kechishi uchun asosiy muhit vazifasini bajaradi. Yoz faslida koloniya juda tez rivojlanadi. Taxminan bir oy davomida ishchi arilar soni 10 tadan 100 tagacha yetadi, uya hajmi esa dastlabki o'lchamiga nisbatan 1–1,5 baravar kattalashadi. Yoz oxiriga kelib esa koloniya o'sish sur'atlari sezilarli darajada pasayadi (30 tadan kam ko'rsatkichgacha tushadi). Shu davrda erkak arilar soni ishchi arilarga nisbatan qariyb 5 baravar ko'p bo'lib yetilishi kuzatiladi. Uya qurilishining keyingi bosqichlarida asosiy e'tibor kichik katakchalardan ko'ra yirik katakchalarni shakllantirishga qaratiladi. Aynan shu

katakchalarda yangi malikalar va erkak individlar rivojlanadi. Oktabr oyining oxirlariga borib yosh malikalar diapauza (qishki tinim) holatiga o'tadi. Ba'zi holatlarda uya qish mavsumida ham saqlanib qolishi va keyingi yil ham foydalanilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keyingi mavsumga yetib kelgan uyalarning shakli ko'p burchakli bo'lib, ular avvalgi yilgi uyalarga nisbatan ancha yirik bo'ladi. *Vespula germanica* uyalari shakllanishi va saqlanishiga ekologik omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kuzatuvlar natijasida 2024 yilda barpo etilgan uyalarning qariyb 60 foizi turli tashqi ta'sirlar va noqulay ekologik sharoitlar sababli buzilib ketgani yoki yaroqsiz holga kelgani aniqlangan. Mazkur tur boshqa arilarga qaraganda uzoq davom etadigan uchish faolligiga ega bo'lib, umumiy hisobda bu davr 160 kunni tashkil etadi. Tadqiqotlarimizda urg'ochi arilarning faolligi may oyining boshidan iyul oyining ikkinchi o'n kunligining oxirigacha (taxminan 80 kun), erkak arilarniki iyul boshidan sentabr oxirigacha (90 kun), ishchi arilarniki esa iyun oyidan sentabr oxirigacha (120 kun) davom etishi qayd etildi.

***Vespula rufa* (Linnaeus, 1758) (*Vespa rufa* Linnaeus, 1758) turi**

Morfologiyasi. Ushbu turning tanasi asosan sariq va qora ranglarning uyg'unligidan iborat. Uning muhim diagnostik belgilaridan biri — qorin bo'limining dastlabki ikki segmentida oqish hamda qizg'ish-qizil rangli dog'larning mavjudligidir. Ishchi individlarning tanasi odatda 10,0–13,0 mm uzunlikda bo'ladi. Urg'ochi individlarining uzunligi 15,5–17,0 mm (♀♀, n = 5), erkaklarining uzunligi esa 13,0–16,0 mm (♂♂, n = 5) atrofida kuzatiladi.

Klipeus qismidagi qora dog' odatda dorsal va ventral chekkalar bo'ylab joylashadi. Ba'zi holatlarda bu qora belgilar ingichka ko'rinishda bo'lib, ventral qirrasigacha yetib bormasligi ham mumkin. Urg'ochi individlarda bo'yin qismining pastki tomoni ko'pincha qora rangda bo'ladi, ayrim hollarda esa fil suyagi rangiga o'xshash mayda dog'lar ham uchrashi mumkin. Erkak individlarda esa bo'yin qismi markaziy yo'nalishda toraygan yoki xira rangli tasma bilan ajralib turadi. Ba'zan bo'yin qismida qora rang ustun bo'lib, faqat kichik och rangli dog' bilan farqlanadi. Metanotum qismida juft fil suyagi rangidagi dog'lar bo'lishi mumkin yoki ba'zi individlarda bu belgilar umuman kuzatilmaydi. Ushbu dog'lar odatda kichik o'lchamli bo'ladi. Metasoma qismidagi belgilar ishchi individlarda malika va erkaklarga nisbatan o'rtacha kenglikda shakllanishi aniqlangan. **Biologiyasi.** *Vespula rufa* koloniyasining hayot sikli malikaning (urg'ochi individning) koloniyani tark etib, urug'langandan so'ng qishlash joyiga o'tishi bilan boshlanishi adabiyotlar hamda 2025 yil kuzida olib borilgan kuzatuvlarimiz asosida o'rganildi. 2023-2025 yillardagi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, erta bahorda, ya'ni mart oyining ikkinchi yarmidan boshlab, qishki tinimdan chiqqan malika uya qurish uchun mos joy izlay boshlaydi. U odatda uyasini yer ostiga — tashlab qo'yilgan kemiruvchilar inlariga, turli bo'shliqlarga, zich shoxlangan butalar orasiga, shuningdek uylarning tom osti yoki chordoq qismlariga joylashtiradi. Koloniyaning shakllanish jarayoni "malika uyasi"ni qurish va dastlabki ishchi arilarni yetishtirish bilan boshlanadi. Voyaga yetgan ishchilar malika uchun oziqa tayyorlashdan ko'ra ko'proq oziqa yig'ish, uya qurish va naslni parvarish qilish bilan shug'ullanadi. Shu davrdan boshlab malika faol tuxum qo'yishga kirishadi. Ba'zi hollarda malika ham ishchilar bilan birgalikda oziqa yig'ishda ishtirok etishi mumkin. Biroq lichinkalarni boqish va uya hajmini kengaytirish asosan ishchi arilar zimmasiga tushadi. Uya kengayishi tez sur'atlarda amalga oshadi va 2–3 oy davomida bunday koloniyalarda minglab ishchi arilar shakllanadi. Katakchalarga qo'yilgan tuxumlardan lichinkalar chiqib, oldindan jamlangan oziqa hisobiga rivojlanadi. Lichinkalik bosqichining oxirida ular g'umbakka aylanadi va keyinchalik

voyaga yetgan individlarga aylanishi kuzatiladi. Dastlabki uya katakchalari kichik bo'lib, ularning diametri taxminan 4 mm ni tashkil etadi. Aynan shu katakchalardan ishchi va erkak arilar rivojlanadi. Keyinchalik uya kengaygani sari katakchalar hajmi ham ortib, diametri 6 mm gacha yetadi. Bunday yirik katakchalarda kelajakdagi malikalar va ayrim erkak individlar shakllanadi. Qizil arilar uyasi nisbatan kichik o'lchamga ega bo'lib, uning diametri kamdan-kam hollarda 20 sm dan oshadi. Uya "qog'ozsimon" tuzilishga ega bo'lib, u qurigan yog'och tolalarini chaynab qayta ishlash orqali hosil qilinadi.

***Vespa orientalis* (Linnaeus, 1771) turi**

Morfologiyasi. Ushbu turning tana uzunligi urg'ochi individlarda 29–32 mm ni, erkaklarida esa 23–31 mm ni tashkil etadi. Ishchi arilarning tanasi odatda 22–26 mm uzunlikda bo'ladi. Erkak individlarda mo'ylov segmentlari soni 13 ta bo'lib, urg'ochilarda esa doimo 12 ta segmentdan iboratligi kuzatiladi. Bosh qismi qizg'ish-jigarrang tusda bo'lib, jag'lari sariq rang bilan ajralib turadi. Ko'krak qismi ham asosan jigarrang rangda, biroq qorin bo'limining 3–4-segmentlari bundan mustasno bo'lib, ular odatda sariq rangda bo'ladi. Ushbu segmentlarning sariq yuzasida ikkita jigarrang dog' mavjudligi qayd etiladi. Mo'ylovlari hamda oyoqlari qizg'ish-jigarrang rangga ega. Boldir (tibia) va panja (tarsus) qismlari esa nisbatan och sariq tusda bo'ladi. Biologiya. Isroil va ingliz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, *Vespa orientalis* ning qorin qismidagi och sarg'ish hududlarda joylashgan ksantopterin pigmentlari quyosh nurlarini yutish va ularni energiyaga aylantirish xususiyatiga ega ekani ta'kidlangan. Shu bilan bog'liq kuzatuvlarimizda ushbu turning ayniqsa quyoshli kunlarda yuqori darajada faol bo'lishi qayd etildi. *Vespa orientalis* odatda uyasini daraxt kovaklarida, toshli qoyalardagi yoriqlarda, devorlar orasida hamda tom osti qismlarida quradi. Qashqadaryo hududida olib borilgan kuzatuvlarda ular ko'pincha uylarning qalin devorlaridagi yoriqlar orqali ichki qismga kirib, keng hajmdagi uya hosil qilishi aniqlangan. Lichinkalarini oziqlantirish uchun ular turli hasharotlar bilan oziqlanadi. Jumladan, to'g'riqanotlilar (*Orthoptera*), qattiqqanotlilar (*Coleoptera*), ninachilar (*Odonata*), parda-qanotlilar (*Hymenoptera*), ayrim hollarda esa asalari (*Apis mellifera*), shuningdek *Vespula* va *Polistes* avlodiga mansub arilar hamda o'rgimchaklar (*Aranei*) ovlanadi. 2024 yil iyul–sentabr oylarida olib borilgan kuzatuvlarda ushbu turning kechqurungi faolligi ham o'rganildi. Harorat pasaygan vaqtda ular asosan issiq saqlanib qolgan asfalt yuzalarida hamda dalalarda faol bo'lib, voha chigirtkasi (*Calliptamus italicus*), poliz chigirtkasi (*Heteracris pterosticha*), dala qandalasi (*Lygus pratensis*), kuzgi tunlam kapalagi va uning lichinkasi (*Agrotis segetum*), shuningdek bahorgi karam pashshasi (*Delia brassicae*) bilan oziqlanishi kuzatildi. Yoz va kuz oylarida lichinkalarni oziqlantirish davrida *Vespa orientalis* ko'plab pishgan mevalarga zarar yetkazadi. Jumladan, o'rik, uzum, shaftoli, olxo'ri kabi mevalarni zararlashi, shuningdek yosh ko'chatlar va mevali daraxtlar po'stlog'ini kemirishi qayd etildi. Bundan tashqari, ular o'rmon xo'jaligi va asalarichilik sohalariga ham sezilarli zarar yetkazadi. Qashqadaryo hududidagi asalarichilik xo'jaliklarida olib borilgan kuzatuvlarda ushbu tur lichinkalarini boqish uchun qisqa vaqt ichida (taxminan 1 soat davomida) 30 taga yaqin asalari hujum qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, ular oziq-ovqat mahsulotlariga — go'sht va go'sht mahsulotlari, shirinliklar hamda turli mevalarga ham zarar yetkazadi. Ushbu arilar turar joylarda, umumiy ovqatlanish maskanlarida va bozorlarda ham uchrab, uy pashshasiga o'xshash xatti-harakat namoyon etadi. Ular shirin mahsulotlar, murabbo, quritilgan mevalar, kesilgan qovun-tarvuz va go'sht mahsulotlariga qo'nib, ularni ifloslantirishi aniqlangan. Ba'zi kuzatuvlarga ko'ra, *Vespa orientalis* mexanik yo'l bilan turli yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarini

tarqatishi mumkin, chunki ular chiqindi va iflos joylarga ham qo'nadi. Bundan tashqari, so'rovlar asosida ushbu turning inson va uy hayvonlarini chaqishi natijasida og'ir asoratlar yuzaga kelishi mumkinligi aniqlangan. Ilmiy manbalar hamda 2023-2025 yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu turning soni tabiiy dushmanlar orqali ma'lum darajada tartibga solinadi. Jumladan, oddiy beshiktervatar (*Mantis religiosa*), parazit hasharot (*Sphexophaga vesparum*) va oltinrang asalarichi qush (*Merops apiaster*) tomonidan ularning populyatsiyasi tabiiy ravishda nazorat qilinadi.

***Vespa crabro* (Linnaeus, 1758) turi**

Morfologiyasi. Tana uzunligi urg'ochi individlarda 29–32 mm ni tashkil etadi, erkaklarida esa 23–31 mm oralig'ida bo'ladi. Ishchi arilarining tanasi odatda 22–26 mm uzunlikda bo'lishi kuzatiladi. Erkak individlarda mo'ylov bo'g'imlari soni 13 ta bo'lsa, urg'ochilarida ular 12 ta bo'lishi bilan ajralib turadi. Bosh qismi qizg'ish-jigarrang tusga ega, jag'lari esa sariq rang bilan ajralib turadi. Ko'krak qismi ham jigarrang bo'lib, qorin bo'limining 3–4-segmentlari bundan mustasno — ular odatda sariq rangda bo'ladi. Mazkur segmentlarning sariq yuzasida ikkita jigarrang dog' mavjudligi qayd etiladi. Mo'ylovlari va oyoqlari qizg'ish-jigarrang rangga ega. Boldir (tibia) hamda panja (tarsus) qismlari esa nisbatan och sariq rang bilan tavsiflanadi. Biologiya. Tadqiqotlarimiz natijasida ushbu tur — *Vespa crabro* odatda uyalarini daraxt kovaklarida, devor yoriqlarida, chordoq va omborxonalarda, tashlandiq binolarda hamda bo'sh qolgan asalari uyalarida qurishi aniqlangan. Kamdan-kam hollarda esa yer ostida uya qurishi kuzatiladi. Uya qobig'i o'simlik po'stlog'i tolalaridan hosil bo'lgan qog'ozsimon materialdan iborat bo'ladi. Bunday uyalar ko'pincha ochiq va kam himoyalangan joylarda quriladi. Aksincha, yopiq va xavfsiz joylarda qurilgan uyalar uchun tashqi qobiqning himoya vazifasi unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi. *Vespa crabro* turining oziqlanishida turli hasharotlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, ular asalari va boshqa ijtimoiy arilarni faol ovlaydi. Voyaga yetgan individlar hatto tungi paytlarda ham faol bo'lib, yorug'lik manbalariga tortilishi kuzatiladi. Ishchi arilar esa daraxt va butalarning shoxlaridan ajralib chiqadigan o'simlik shiralarini (organik suyuqliklarni) iste'mol qiladi. Oddiy shershen (*Vespa crabro*) ning rivojlanish siklini o'rganishga qaratilgan kuzatuvlarimizda ushbu jarayon odatda iyun oyidan oktabr oyigacha davom etishi qayd etildi. Birinchi ishchi individlar havo harorati bilan bog'liq holda nisbatan kech — odatda iyun oyining o'rtalarida, ba'zan esa oy oxirida paydo bo'ladi. Erkak individlarning rivojlanishi asosan avgust oyiga, urg'ochi individlarning shakllanishi esa sentabr oyining o'rtalariga to'g'ri keladi. Umuman olganda, jinsiy individlarning asosiy qismi aynan sentabr oyida yetilib chiqishi kuzatilgan. 2025 yilda ob-havo sharoitining qulay kelishi koloniyaning faol rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada uya 5–6 qatlamgacha kengayib, uning diametri taxminan 20 sm ga yetgani qayd etildi. Bunday koloniyalarda bir vaqtning o'zida ko'plab faol ishchi arilar kuzatildi. Qashqadaryo hududida olib borilgan kuzatuvlarda ushbu tur uyalar asosan sarg'ish-jigarrang rangda bo'lib, ularni aholi yashash joylariga yaqin binolarda, yangi qurilish obyektlarida, kemiruvchilar inlari kirish qismida hamda daraxt kovaklarida (masalan, qayrag'och va to'rang'il daraxtlarida) uchratish mumkinligi aniqlandi. Voyaga yetgan *Vespa crabro* asosan uglevodlarga boy oziqalar bilan oziqlanadi. Tadqiqotlarimizda ular ushbu moddalarni mevali o'simliklardan ajralib chiqadigan shiradan hamda turli pishgan mevalardan olishi kuzatildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Тобиас В.И. Семейство Vespidae. В кн.: Определитель населения европейской части СССР. Т. III. Гл. 1. Перепончатокрылые, Л.: Наука. 1978. – 132 с.
2. West-Eberhard M.J., Carpenter M.J., Hanson P.E. (1995). The Vespid wasps (Vespidae) // The Hymenoptera of Costa Rica. London: Natural history museum, – P. 561–587.
3. Абашеев Р.Ю., Буянжаргал Б. Складчатокрылые осы (Hymenoptera, Vespidae) Монголии // Биоразнообразие. Экология. Адаптация. Эволюция: материалы VI Международной конференции молодых ученых. Одесса: 2013а. – С. 68–70.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.